

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
MOSCOW • RUSSIA



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modelashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI	10
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	17
Yusupova Jamila Karamatdinovna AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI	21
Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI	26
Eshonqulov Akmal Qudratovich XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	34
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIVALASHTIRISH VA INVESTITSIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	40
Akramova Feruza ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	52
Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELLARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI	59
Nazarov Elbek PHYSALIS ALKEKENGII O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLISHNING BIOTEXNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH	66
Xidirova Saboxat Baxrillayevna ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА»	70
Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIY TAJIRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI	77
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	82
Normamatov A. A. IPAKCHILIK KLASSTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH	87
Elboyeva Shaxzoda Olimovna KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	94
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li OLIIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	101
Usmanov Sarvar Nigmatovich	



РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА.....	107
Камариддинов Шохрух Акмал угли	
SANOAT KLASSTERLARIDA "SANOAT 4.0" TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI	113
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	119
Normamatov A. A.	
YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	124
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
HUDUDIIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI	128
Maxmudova Nodira Uktamovna	
EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD.....	134
Norqulov Shohbozbek Samandar ugli	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	140
Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA'LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA'SIRI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI	145
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	150
Kilichov Nazar Bafoyevich	
HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI	157
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH	164
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi	
COMPETITION IN THE INFORMATION MARKET: MONOPOLY TRENDS AND THE DIGITAL PLATFORM ECONOMY.....	169
Mo'ydinjonova Durdonaxon, Ismanov Ibrohim	
BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI	174
Ganiyev Botir Baxtiyorovich	
MAGNIY VA KALSIY ELEMENTLARINI O'RGATISHDA O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	178
Esnazarov Abdiganij Jamalatdinovich	
DATA-DRIVEN STRATEGIK MENEJMENT: MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUVNING ZAMONAVIY KORXONALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI	184
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
YASHIL BUXGALTERIYA (GREEN ACCOUNTING) VA ESG HISOBOTLARI: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK VOSITALARI	190
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ	196
Нуралиева Мукаддас Мамуровна	



AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTISIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA MUSTAHKAMLASH MASALALARI	201
Xakimov Rashid	
TADBIRKORLIKDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARALARI	206
Salohiddinov Zuhridin Nuriddinjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATINI TAHLIL QILISH	212
Achilova Firuza, Zohidov Jamshid	
NAMANGAN VILOYATINING BOSHQA HUDUDLAR BILAN TOVAR VA XIZMATLAR AYLANMASI HAMDA IQTISODIY ALOQALARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	217
Sattarov R.A.	
ОПТИМАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ	222
Нурмуродов Камолиддин Пирмаматович	
OPTIK ABONENT KIRISH TARMOG'INING XIZMATLARI SAMARADORLIGI	230
Uskenbayeva Dilfuza Shuxrat qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI EKONOMETRIK MODELLARINI TUZISH VA PROGNOZLASH	235
Siroj Zarina Rustambekovna	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTERLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	242
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
HUNARMANDCHILIK KLASSTERLARI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA: TURKIYA, MAROKASH VA FRANSIYA MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI	249
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
BANK TIZIMIDA LIKVIDLILIK VA KAPITAL YETARLILIGI RISKLARINI BOSHQARISH MASALALARI ...	255
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
O'ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL OMILLARI	258
Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi	
BIOLOGIK AKTIVLARNI HAQQONIQIY QIYMATDA BAHOLASHNING KO'P OMILLI MODEL	266
Akhmetova Salima Seytovna	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY - USLUBIY JIHATLARI	272
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich	
YASHIL INVESTITSİYALAR MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR DIVERSIFIKATSİYALASH VOSITASI SIFATIDA	281
To'xtayev Maqsud Mansurovich	
DAVLAT MUASSASALARIDA INSON RESURLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	287
Xusanova Muxsina Kasimovna	
O'ZBEKISTONDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGINI RIVOJLANISH QONUNIYATLARI VA UNDAGI TIZIMLI MUAMMOLAR TAHLILI	294
Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD MANBALARI INDEKSI VA UNING RENTABELLIGIGA TA'SIRI	300
Ahmedov Komron Muhammad-Alievich	
KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARINING ISHLASH TAMOIYILLARI VA ULARNI QURILISH KORXONALARI AMALIYOTIGA JORIY ETISH MASALALARI	308
G'iyosov Ilxom Karimovich	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	316
Sattarov R.A.	



UY-JOY BOZORIDA BIRLAMCHI VA IKKILAMCHI SEGMENTLAR O'RTASIDAGI NARX TAFOVUTLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNING IQTISODIY TAHLILI	322
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
TABIY RESURLAR SAMARADORLIGI VA INSON KAPITALI INTEGRATSIYASINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON HUDUDLARI MISOLIDA	329
Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi	
CHAKANA SAVDODA MAHSULOT TALABINI BASHORATLASH USULLARI	336
Mamatov Narzullo, Baxtiyorova Mohiruy	
SOLIQ AUDITIDAGI XAVF-XATARLARNI TAHLIL QILISH (RISK-ANALIZ) TIZIMI VA BUXGALTERNING HIMOYA TAKTIKASI	343
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM XIZMATLARI SIFATINING NAZARIY ASOSLARI	347
Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich	
MA'LUMOTLARNI MOLIVAVIY HISOBOTDA TAQDIM ETISHNING XORIY TAJRIBASI.....	351
Kozimjonov Abrorbek	
TADBIRKORLIK INFRATUZILMASINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ORQALI SANOAT ZONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	357
Arifbayev Bobir Dilshodovich	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA TRANSCHEGARAVIY SUG'URTA VA DAVLAT KAFOLATLARI MEKANIZMLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	364
Kengesbaeva Suliuxan Maxsetbay qizi	
20GL MARKALI PO'LATDAN TAYYORLANADIGAN YUK VAGONI YON RAMASI QUYMASIDA KIRISHUV G'OVAKLAR HOSIL BO'LISH QONUNIYATLARINI TADQIQ QILISH	368
Chorshanbiyeva Lobar, Turaxodjayev Nodir, Nuriddinov Otabek, Kenjayev Elshod	
O'ZGARUVCHAN TEZLIKLI, OG'MA QATOR QOZIQLI, SINUSOIDAL PLANKALI BARABANLARDA PAXTA BO'LAGINING ZARBALI TA'SIRI MODELI.....	374
Djurayev Anvar, Qorachayeva Oltinoy	
SANOAT KORXONALARINI ESG ASOSIDA JARAYONLI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	379
Azimova Maxfuza Rashidovna	
TURIZM SOHASIDA AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASH VA YANGI ISH O'RINLARINI YARATISHGA QARATILGAN TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASH	386
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINI SOLIQQA TORTISHNING HUQUQIY ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	391
Sarsengalieva Albina, Sarsenbaev Bakhitjan	
DETERMINANTS OF THE SHADOW ECONOMY: A CONCEPTUAL CLASSIFICATION AND CROSS-COUNTRY EVIDENCE	395
Rakhmonov Azizjon Sadullayevich	
ELEKTRON TIJORAT ORQALI CHAKANA SAVDONI OSHIRISH YO'LLARI (POYABZAL SANOATI MISOLIDA)	403
Makhmudova Munisaxon Abbos qizi	
BYUDJET TASHKILOTLARI AUDITIDA AUDITORLIK TANLAMASINING IQTISODIY MOHIYATI VA TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Muqumov Jasur Bosimovich	
BYUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	415
Aitmuratova Miyrigul Jalgasovna	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBI VA TANNARXNI ANIQLASHNING NAZARIY MASALALARI.....	420
Jumaniyazov Iskandar Bohodirovich	



DAVLAT TASHKIOTLARIDA MENTORLIK TIZIMINI JORIY ETISHNING PROAKTIV TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI TAHLILI	424
Xurshida Maxmadaminova	
ZAMONAVIY DASTURLAR YORDAMIDA MULTIMODAL TASHISHLAR VA LOGISTIKA TIZIMLARI SOHASIDAGI ILMIY TADQIQOTLARNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARINI ANIQLASH	430
Zohidov Muhiddin G'ofurjon o'g'li	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA AGROBIZNESNI DIVERSIFIKATSIYA QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	436
Noraliyeva Gavhar Murodqulovna, Norqobilov Nusrat Norsaitovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA JALB ETILGAN INVESTITSİYALARNING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI EKONOMETRIK TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA).....	441
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH VA QAYTA ISHLASH IMKONIYATLARI.....	447
Xamdamov Amriddin, Madig'oyibov Jamshid	
РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ЖИДКОГО И ТВЁРДОГО АНТИГОЛОЛЁДНОГО РЕАГЕНТА ИЗ МЕСТНЫХ СЫРЬЕВЫХ РЕСУРСОВ	452
Дадаходжаев Абдулла, Ахмедов Мансур, Гуро Виталий	
АНАЛИЗ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ТЕХНИКИ ДЛЯ УПЛОТНЕНИЯ ДАМБ	457
Шомирзаев Эргаш Хурсанович	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLLIGINI OSHIRISHDA O'ZINI O'ZI BAND QILISH TIZIMINING ROLI	465
Zakirov Mir Timur Zakir o'g'li	
HUDUDIY MEHNAT BOZORINI RAQAMLI BOSHQARISH: ISH O'RNI SIFATI PASPORTI VA ELEKTRON ISH O'RINLARI XARITASI ARHITEKTURASI.....	470
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
AVTOMOBIL YO'LLARI QURILISHI XIZMATLARIDA INNOVATSIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI VA ULARNI JORIY ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	476
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
HUDUDLARDA QURILISH XIZMATLARI SOHASINI RIVOJLANISHINING IQTISODIY HOLATI TAHLILI .	483
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ОЦЕНКИ И РАЗВИТИЯ ПОТЕНЦИАЛА РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО И ХОЗЯЙСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И ЕГО ТРАНСФОРМАЦИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	491
Хусаинов Равшан Рахимович	
THE COMPOSITION OF SOLID PROPELLANT IN MODEL ROCKETS AND ITS EFFECT ON FLIGHT PERFORMANCE: A COMPARATIVE STUDY OF BIOMASS CATALYSIS AND GRAIN GEOMETRY	502
Karimov Mustafo, Berdiyev Usmon	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH DARAJASINI BAHOLASHNING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA METODIK YONDASHUVLARINING BUGUNGI HOLATI	508
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОДЕЖДЫ ДЛЯ ВОЕННО-ПОЛЕВЫХ СЛУЖАЩИХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ НАНОТЕХНОЛОГИЙ.....	515
Мирфаязова Нилуфар, Н. Боратова	
SURXONDARYO VILOYATIDA DAVLAT TOMONIDAN KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISH HOLATI.....	524
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
DAROMADLAR TAQSIMOTI VA AYIRBOSHLASH MUNOSABATLARIDA IQTISODIY ADOLAT: NAZARIY YONDASHUVLAR VA BAHOLASH MEZONLARI	527
Alimov Nasimjon Hoshimovich	



O'ZBEKISTONDA DAVLAT MULKINI XUSUSIYLASHTIRISHDA MOLİYAVIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	533
Sanjarov Zuxriddin Dilshod o'g'li	



O'ZBEKISTONDA DAVLAT MULKINI XUSUSIYLASHTIRISHDA MOLIYAVIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Sanjarov Zuxriddin Dilshod o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi



Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish jarayonlarida qo'llanilayotgan moliyaviy mexanizmlarning amaldagi holati baholanib, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot davomida ayrim davlat mulki obyektlarining savdolarida sotilish darajasi pastligi, ijaraga berilgan davlat ko'chmas mulk obyektlarini ijarachilar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri sotib olish imkoniyatlarining cheklanganligi, muayyan shartlar asosida sotish tartibining huquqiy jihatdan yetarli darajada tartibga solinmagani hamda markazlardan uzoqda joylashgan hududlarda uzoq muddatli bo'lib-bo'lib to'lash mexanizmlarining yetarlicha qo'llanilmayotgani aniqlandi.

Mazkur masalalarni hal etishga qaratilgan mualliflik takliflari ishlab chiqilib, ularni amaliy qo'llash imkoniyatlari va kutilayotgan natijalari baholandi. Taklif etilgan yondashuvlar davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlarining samaradorligini oshirish, davlat aktivlarini iqtisodiy aylanmaga kengroq jalb etish hamda xususiy sektor ishtirokini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: davlat mulki, xususiylashtirish, moliyaviy mexanizmlar, xususiylashtirish samaradorligi.

Аннотация. В статье проведена оценка современного состояния финансовых механизмов, применяемых в процессах приватизации государственного имущества в Республике Узбекистан, а также разработаны научно-практические подходы, направленные на повышение их эффективности.

В ходе исследования выявлены такие вопросы, как невысокий уровень реализации отдельных объектов государственного имущества, ограниченные возможности прямого выкупа арендаторами арендуемых объектов государственной недвижимости, недостаточная правовая регламентация механизмов продажи на определённых условиях, а также ограниченное применение долгосрочной рассрочки при продаже государственного имущества, расположенного в удалённых от административных центров районах.

Разработаны предложения автора, направленные на решение указанных вопросов, и оценены возможности их практического применения и ожидаемые результаты. Предлагаемые подходы могут способствовать повышению эффективности приватизации государственного имущества, более широкому вовлечению государственных активов в экономический оборот и расширению участия частного сектора.

Ключевые слова: государственное имущество, приватизация, финансовые механизмы, эффективность приватизации.

Abstract. This article assesses the current state of the financial mechanisms applied to the privatization of state-owned property in the Republic of Uzbekistan and develops scientific and practical approaches aimed at improving their effectiveness. The study identifies several issues, including the relatively low sales rate of certain state-owned assets, limited opportunities for tenants to purchase leased state-owned real estate directly, insufficient legal regulation of sales subject to specific conditions, and the limited use of long-term installment arrangements for state-owned property located in areas distant from administrative centers.

The author proposes approaches to addressing these issues and assesses their potential practical application and expected outcomes. The proposed approaches may contribute to improving the effectiveness of state property privatization, expanding the involvement of state-owned assets in economic activity, and increasing private-sector participation.

Keywords: state property, privatization, financial mechanisms, privatization effectiveness.



KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat ishtirokini qisqartirish, xususiy mulk ustuvorligini ta'minlash va raqobat muhitini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada davlat mulklarini xususiy sektorga o'tkazish, investitsiyalarni jalb qilish, davlat ishtirokini qisqartirish va davlat mulklarini iqtisodiy aylanmaga jalb etish bo'yicha choralar ko'rilmqda.

Shu bilan birga, davlat mulklarini xususiylashtirish amaliyoti tahlili mazkur sohada qo'llanilayotgan ayrim moliyaviy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Xususan, ayrim davlat mulki obyektlarining savdolarida sotilish darajasi pastligi, ijaraga berilgan davlat ko'chmas mulk obyektlarini xususiylashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi, muayyan shartlar asosida sotish mexanizmlarining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish hamda markazlardan uzoqda joylashgan hududlardagi davlat mulki obyektlarini uzoq muddatli bo'lib-bo'lib to'lash asosida sotish mexanizmlarini kengaytirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi davlat mulkini xususiylashtirishda qo'llanilayotgan moliyaviy mexanizmlarning samaradorligini baholash, ularning samaradorligini oshirishga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash hamda mavjud masalalarni hal etish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflarni asoslash va ularni qo'llashdan kutilayotgan natijalarni baholashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

U. Megginson va J. Netter xususiylashtirishning davlat korxonalari samaradorligi, korporativ boshqaruv va raqobat muhitiga ta'sirini o'rganib, xususiylashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim vositalaridan biri ekanligini asoslab bergan [1].

E. Shadmanov va A. Turkmanov O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlarining iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini tadqiq etib, xususiylashtirish davlat ishtirokini qisqartirish, xususiy sektorni rivojlantirish va investitsiya muhitini yaxshilashning muhim omili ekanligini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, mualliflar xususiylashtirish jarayonlarida xalqaro tajribani milliy xususiyatlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini qayd etadilar [2].

T. Qodirov davlat mulkini boshqarish tizimida xususiylashtirishning institutsional ahamiyatini tadqiq qilib, xususiylashtirish jarayonida iqtisodiy manfaatlar muvozanatini ta'minlash, ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini kuchaytirish davlat aktivlarini boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biri ekanligini asoslaydi [3].

T. Jo'rayev davlat aktivlarini boshqarishda korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish xususiylashtirish jarayonlarining natijadorligiga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlab, davlat ishtirokidagi korxonalarda zamonaviy korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishini qayd etadi [4].

A. O'lmasov va A. Vahobov iqtisodiyot nazariyasi nuqtayi nazaridan mulkchilik munosabatlarini takomillashtirish bozor iqtisodiyotining asosiy sharti ekanligini asoslab, davlat mulkini samarali xususiylashtirish resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilishini ta'kidlaydilar [5].

Tahlil qilingan adabiyotlarda, asosan, xususiylashtirishning institutsional va iqtisodiy jihatlariga e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, davlat mulkini xususiylashtirishda qo'llanilayotgan moliyaviy mexanizmlarning samaradorligini oshirish masalasi yetarlicha yoritilmagan. Mazkur maqolada aynan shu yo'nalish bo'yicha ilmiy-amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlarida qo'llanilayotgan moliyaviy mexanizmlarning amaldagi holati va samaradorligini baholashda kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy va metodologik asosini davlat mulkini xususiylashtirish sohasidagi mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Tadqiqotning normativ-huquqiy asosini esa O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 9-martdagi O'RQ-821-son "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi Qonuni [6], 2024-yil 14-fevraldagi O'RQ-907-son "Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonuni [7], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda PF-287-son Farmoni [8] hamda 2024-yil 19-aprelda PQ-162-son qarori [9] tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Shuningdek, davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish amaliyotidagi mavjud masalalar o'rganilib, ularni hal etish bo'yicha ishlab chiqilgan mualliflik takliflarini amaliy qo'llash imkoniyatlari va kutilayotgan natijalari baholandi. Tadqiqot xulosalari Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ma'lumotlari, sohaga oid rasmiy statistik axborotlar va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida shakllantirildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlari iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish, xususiylashtirish faolligini kengaytirish va investitsiya muhitini yaxshilashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, xususiylashtirish jarayonlarining iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi ayrim moliyaviy mexanizmlar hali ham takomillashtirishni talab etmoqda.

Mazkur tadqiqot doirasida davlat mulklarini sotish amaliyoti va sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, xususiylashtirish jarayoni samaradorligini cheklayotgan bir qator omillar aniqlandi. Xususan, ayrim davlat mulklarining uzoq vaqt sotilmay qolishi, ularning qiymati haqiqiy bozor talabiga mos kelmasligi, investorlar uchun moslashuvchan moliyaviy shartlarning yetarli darajada qo'llanilmayotgani va investitsiya majburiyatlari mavjud obyektlar bo'yicha sotish mexanizmlarining yetarlicha xilma-xil emasligi asosiy muammolar sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida davlat mulki obyektlaridan uzoq yillar davomida ijara asosida foydalanib kelayotgan tadbirkorlar uchun ularni sotib olish imkoniyatlari yetarli emasligi ma'lum bo'ldi. Bu, o'z navbatida, tadbirkorlarning obyektga qo'shimcha mablag' kiritish va uni yanada rivojlantirishga bo'lgan qiziqishini kamaytirishi mumkin. Shu bois, xususiylashtirish jarayonida ijarachilar tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalar va obyektidan samarali foydalanish natijalarini hisobga oladigan mexanizmlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, investitsiya yoki ijtimoiy majburiyatlar belgilangan davlat obyektlarini xususiylashtirishda eng yuqori narx taklifini yagona mezon sifatida qo'llash har doim ham samarali natija bermaydi. Bunday obyektlar uchun investorning biznes-rejasi, yangi ish o'rinlarini yaratish rejasi va obyektidan kelgusida samarali foydalanish imkoniyatlarini ham baholash muhim hisoblanadi.

Hududlar bo'yicha o'tkazilgan tahlillar markazlardan uzoqda joylashgan hamda iqtisodiy faolligi nisbatan past hududlarda davlat mulki obyektlariga talab nisbatan pastligini ko'rsatadi. Bu, asosan, to'lov shartlarining yetarlicha qulay emasligi bilan izohlanadi.

Shu sababli, ushbu hududlarda davlat mulki obyektlarini sotishda uzoq muddatli bo'lib-bo'lib to'lash mexanizmlarini kengroq qo'llash investorlar ishtirokini oshirish va xususiylashtirish jarayonlarining faollashishiga xizmat qilishi mumkin.

O'z navbatida, xususiylashtirish jarayonlarining natijadorligini baholash maqsadida 2021–2025-yillarda davlat mulklarini xususiylashtirish va undan tushgan tushumlar dinamikasi o'rganildi.

1-jadval

Davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish va ularni sotishdan tushgan tushumlar dinamikasi¹

Yil	Savdoga chiqarilgan aktivlarning boshlang'ich qiymati, trln so'm	O'sish (%)	Sotilgan aktivlar qiymati, trln so'm	O'sish (%)	Davlat aktivlarini sotishdan tushgan tushum, trln so'm	O'sish (%)
2021-yil	5,7	-	7,3	-	3,7	-
2022-yil	15,6	173%	11,3	55%	6,6	78%
2023-yil	20,9	34%	11,4	1%	9,6	45%
2024-yil	23,4	12%	17,4	53%	9,8	2%
2025-yil	41,0	75%	29,8	71%	11,0	12%

O'rganishlarga ko'ra, 2021–2025-yillarda davlat mulklarini xususiylashtirish ko'rsatkichlari izchil o'sib borgan. Jumladan, 2022-yilda savdoga chiqarilgan aktivlar qiymati 173 foizga, 2023-yilda davlat mulklarini sotishdan tushgan tushum 45 foizga, 2024-yilda esa sotilgan aktivlar qiymati 53 foizga oshgan. 2025-yilda ko'rsatkichlarning eng yuqori mutlaq hajmi qayd etilib, savdoga chiqarilgan aktivlar qiymati 41,0 trln so'mga, sotilgan aktivlar qiymati esa 29,8 trln so'mga yetgan. Mazkur ko'rsatkichlar 2024-yilga nisbatan mos ravishda 75 va 71 foizga oshgan. Mazkur ko'rsatkichlar tahlil qilinayotgan davrda xususiylashtirish jarayonlari faollashganini hamda davlat aktivlariga xususiylashtirish investorlar qiziqishi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Muallif tahlillari asosida quyidagi ilmiy-amaliy yondashuvlar taklif etildi:

- uzoq muddat davomida savdolarda sotilmagan obyektlarning boshlang'ich narxini bozor talabi va obyekt-

¹ Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yilgi hisoboti asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

- ning amaldagi holatidan kelib chiqib qayta ko'rib chiqish;
- davlat mulki obyektlaridan uzoq muddat ijara asosida samarali foydalanib kelayotgan tadbirkorlarga ularni belgilangan shartlar asosida sotib olish imkoniyatini yaratish;
- investitsiya va ijtimoiy majburiyatlar nazarda tutilgan obyektlarni sotishda tanlov mexanizmlaridan foydalanish hamda investorning biznes-rejasi va investitsiya imkoniyatlarini baholash;
- markazlardan uzoqda joylashgan hududlarda davlat mulki obyektlarini sotishda uzoq muddatli bo'lib-bo'lib to'lash mexanizmlarini kengroq qo'llash.

Umuman olganda, taklif etilgan yondashuvlar davlat mulki obyektlarining sotilish imkoniyatlarini yaxshilash, xususi investorlar ishtirokini kengaytirish va budget tushumlarining barqarorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot davlat mulkini xususiylashtirish jarayonida moliyaviy mexanizmlarni yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar amaldagi tartibda bozor talabini hisobga olish, investorlar uchun qulay moliyaviy shart-sharoitlar yaratish va hududlarning iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olish zarurligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari asosida davlat mulki obyektlarini sotishda moslashuvchan narx belgilash, obyektlardan uzoq muddat ijara asosida samarali foydalanib kelayotgan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, investitsiya majburiyatlari mavjud obyektlarni tanlov asosida xususiylashtirish hamda markazlardan uzoqda joylashgan hududlarda uzoq muddatli bo'lib-bo'lib to'lash mexanizmlarini kengaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy yondashuvlar taklif etildi. Ushbu yondashuvlarning amaliyotda qo'llanilishi davlat mulki obyektlarining sotilish darajasini oshirish, xususi investitsiyalarni rag'batlantirish va davlat mulkidan foydalanish samaradorligini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Megginson W. L., Netter J. M. From State to Market: A Survey of Empirical Studies on Privatization // Journal of Economic Literature. – 2001. – Vol. 39, No. 2. – P. 321–389. – DOI: 10.1257/jel.39.2.321.
2. Shadmanov E., Turkmanov A. O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlari va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – J. 3. – № 1. – DOI: 10.5281/zenodo.14713834.
3. Kadirov T. A. The Role of Privatization in the State Property Management System // Economy and Business: Theory and Practice. – 2025. – № 11. – P. 141–146. – DOI: 10.24412/2411-0450-2025-11-141-146.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi. Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish, davlat aktivlarini xususiylashtirish va boshqa sohalarda 2024-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. – Toshkent, 2025.
5. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2014.
6. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 9-martdagi O'RQ-821-son "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-6401697>
7. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-fevraldagi O'RQ-907-son "Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-6800515>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda PF-287-son "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6333225>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PQ-162-son "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/6898706>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100